

**O‘ZBEKISTONDA STATISTIKA TIZIMI VA AHOLINI
RO‘YXATGA OLISH TADBIRLARI (XIX ASR OXIRI VA XX ASR
BOSHLARI)**

Gulruh Akmal qizi Kasimova

O‘zR FA Tarix instituti

1-kurs tayanch doktoranti

[*gulrukasymova@gmail.com*](mailto:gulrukasymova@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston SSRda ilk rasmiy ro‘yxatga olinishi, aholini ro‘yxatga olishning maqsadi, ro‘yxatga olish tadbirlari va uni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning tashkil etilishi tarixiga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada aholining milliy tarkibidagi o‘zgarish jarayonlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Aholi ro‘yxati, statistika, milliy tarkib, migratsiya, ijtimoiy-demografik jarayon, o‘lka statistika boshqarmasi.

**СТАТИСТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА И МЕРЫ ПО РЕГИСТРАЦИИ
НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX В.)**

Аннотация: В статье основное внимание уделяется первой официальной регистрации в Узбекской ССР, цели переписи населения, регистрационной деятельности и истории государственных органов, ее осуществляющих, и их организации. Также в статье рассматриваются процессы изменения национального состава населения.

Ключевые слова: Перепис населения, статистика, национальный состав, миграция, социально-демографический процесс, статистическая служба края.

**STATISTICAL SYSTEM AND POPULATION REGISTRATION
MEASURES IN UZBEKISTAN (LATE XIX - BEGINNING XX
CENTURIES)**

Abstract: The article focuses on the first official registration in the Uzbek SSR, the purpose of the population census, registration activities and the history

of state bodies that carry it out and their organization. The article also discusses the processes of changing the national composition of the population.

Index terms: *Population census, statistics, national composition, migration, socio-demographic process, statistical service of the region.*

Aholini ro'yxatga olish mamlakatning ijtimoiy-demografik tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumot manbai, rasmiy statistika tizimidagi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Bu aholi soni bo'yicha aniq va ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi. Aholi sonini ro'yxatga olish mamlakatda yashovchi barchaga tegishli bo'lgan demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil va e'lon qilishning yagona jarayonidir. U aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai bo'lib, kelgusi 10-20 yillik rivojlanishning prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ishonchli poydevor yaratadi.

Aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi. O'z navbatida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot tarzida foydalaniladi.¹

Aynan aholini ro'yxatga olish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha komitetlar Turkiston o'lkasida tuzildi. O'zbekiston Milliy arxivining "Bosma nashrlar saqlovxonasi" fondida aholini ro'yxatga olish bo'yicha bir qancha to'plamlarni ko'rishimiz mumkin.

Mintaqaviy statistika tizimi markazi sifatida Turkiston o'lkasining statistikasi shakllanishi va rivojlanish bosqichi o'zining muhimligi, bilim va tajribalarini to'plashi, tizim va tuzilishidagi rivojlanish, shuningdek hududiy tarmoq statistika xizmatini rivojlanishiga xissa qo'shgan so'rovlar va ko'ptarmoqli statistika faoliyati shakllanishi 1867 yildan 1917 yilgacha bo'lib o'tdi.

Viloyatda tashkil etilgan statistika tizimi faoliyatining asosiy maqsadi 19-asrning 90-yillaridan boshlab yer tuzish siyosatini yuritish maqsadida statistik materiallarini shakllantirish va taqdim etishga qaratilgan edi.

O'lkada statistik tizimning zaifligi davlat statistik xizmatining jamoat tashkilotlari va shahar o'zini-o'zi boshqaruv tizimlari bilan o'zaro hamkorligida ko'rindi. Tarixiy-o'lkashunoslik va sohaviy jamoat tashkilotlari yo'nalishidagi statistik ma'lumotlar statistik xizmat uchun qimmatli bo'lgan materiallarni berdi. 19-asrning 70-yillari ikkinchi yarmida shahar o'zini-o'zi boshqaruv tizimlarining rivojlanishi o'lka statistik xizmatining aniq bir hudud statistik materiallarining shakllanishi va faoliyatiga ta'sir qildi. Turkiston statistika tizimi faoliyati uchun xilma-xil ish shakllari va usullari ya'ni aniq so'rovlarga, topshiriq va statistika xizmati tizimining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ish turlari xarakterli edi. O'lka statistika komiteti faoliyatida statistik ishlar va statistik tekshiruvlarning yillik shakli sifatida guberniya hisobotlari o'rin egalladi. Mintaqamizda statistika rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar statistik ish usullarini ham oldindan belgilab berildi, ular ro'yxatga olish vaqti va o'rganilayotgan birlikni qamrab olish bo'yicha tasniflanadi.ⁱⁱ

Ushbu ma'lumotlarni o'zida saqlovchi O'zbekiston Milliy arxivi fondidan o'rin egallagan "O'zbekiston SSR Sovet Ministrlari qoshidagi markaziy statistika boshqaruvi" fondi mavjud bo'lib, unda Turkistonda va O'zbekistonda olib borilgan statistika bo'yicha ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

O'zining katta hududiga ega bo'lgan Turkistonda turli tillarda so'zlashuvchi turli millat vakillari borligi statistika ishida aynan shu millat vakillaridan bo'lishlikni talab etdi. Turkiston Statistika markaziy boshqarmasi 1923 yil noyabr oyida birinchi 4 oylik statistiklar tayyorlov kursin ochdi.

O'qituvchi va leksiyalarni olib boruvchilar statistika markaziy boshqaruvining vakillaridan tanlandi. 1924-yil 1-martda kurs o'z ishini yakunladi. Kursni tugatuvchilar quyidagi lavozimlar bo'yicha joylashtirildi: statistiklar – 19; statistik-instruktorlar – 5; O'zstatbyuro o'rinbosarlari – 6; seksiya o'rinbosarlari – 2; va viloyat statbyuro o'rinbosarlari – 1. Kursni umumiy – 33 kishi tammladi va ulardan 22 tasini erkaklar, 11 tasini ayollar tashkil etdi.

Respublika statistika markaziy boshqarmasi tizimli ravishda statistik materiallarni berib bordi: 1921-1924 yillarda 44 ta byulleten, 1924 yil ikki jildli

statistik yilnoma ilovlari bilan nashr qilindi.

AHOLI SONI

Yillar	Jami	Shahar	Qishloq
1917	4 486 000	936 000	3 550 000
1918	4 480 000	879 000	3 601 000
1919	4 478 000	815 000	3 663 000
1920	4 470 000	813 000	3 657 000
1921	4 392 000	816 000	3 576 000
1922	4 363 000	837 000	3 526 000
1923	4 321 000	830 000	3 491 000
1924	4 258 000	866 000	3 392 000

1924 yil 1 yanvarda markaziy statistika boshqarmasi tuzilishi qo'yidagicha bo'lgan:

Iqtisodiy statistika bo'limi

Sanoat statistika bo'limi

Qishloq xo'jaligini asosiy statistika bo'limi

Qishloq xo'jaligining joriy statistika bo'limi

Shahar statistika bo'limi

Demografiya va ahloqiy-sanitar statistika bo'limi

Xalq ta'limi statistika bo'limi

Birlashgan mexnat bo'limi (respublikaning kasaba uyushmalari tashkilotlari bilan birga)

Ma'muriy-instruktorlik bo'limi

Umumiy ishlar bo'limiⁱⁱⁱ

1920 yilda birgina Turkiston ASSR hududida 39,3% o'zbeklar, 20,8% kirgizlar, 8% tojiklar, 10% kirgizlar, 5% turkmanlar, 1,4% qoraqalpoqlar va 10,3% ruslar, 2,3% ukrainlar va 1% belorusslar yashagan.

1926 yildagi aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra O'zbekiston SSRda 65 dan ortiq turli millat vakillari yashagani qayd etilgan.^{iv}

Aholi soni dinamikasi

Yillar	Aholini umumiy o'sishi	Jumladan,			
		Tabiiy o'sish		Migratsiya	
1917-1923	-228 000	-196 300	-86,1%	-31 700	14%
1924-1925	363 000	193 600	53%	169 000	47%

Statistika Turkistonning barcha sohalarini qamram olgan edi. Har bir soha o'zining rivojlanish va kelajakda shu sohani rivoji uchun o'rganilishi kerak bo'lgan turli yo'nalishlarini statistikasi olib borilgan.

1923 yilda Turkiston ASSR shaharlarida mehnatga layoqatli 581 265 aholining 54% ishga jalb etilib, ulardan 85% erkaklar va 15% ayollar tashkil etgan. 1938 yilga kelib ishga jalb etilgan ayollarning soni 31% oshib, ulardan 26,5% xalq xo'jaligida va 45% kolxozlarga jalb etilgan.

1920-1924 yillarda ishsizlar soni ortib borgan. Mutaxassis xodilarning ish joylari – 2,2 barobarga, ishchilar joyi esa 3 barobarga qisqargan.

Birgina misol, 1922 yilda 6,8 ming maktab xodimlari ish joylari qisqarganligi sababli ishsiz qolgan. Ularni turli ijtimoiy mehnatga safarbar etilgan, ishsizlar uylari, ishsizlarga ko'mak berish jamg'armalari tashkil etilgan.

Umuman olganda aholishunoslik muammolari barcha davrlarda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. XX asrning boshlarida respublika aholishunosligi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bir tomondan sho'rolarning ruslashtirish siyosati kuchayishda davom etsa, ikkinchi tomondan mavjud mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, bandlik masalalariga yetarli ahamiyat qaratilmadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ⁱ <https://uza.uz/ru/posts/aholini-royxatga-olish-nima-uchun-kerak-361030?q=%2Fposts%2Faholini-royxatga-olish-nima-uchun-kerak-361030>

ⁱⁱ Хамраева Т.Р. Создание и деятельность статистической службы в Туркестане <https://cyberleninka.ru/article/n/sozдание-i-deyatelnost-statisticheskoy-sluzhby-v-turkestane/viewer>

ⁱⁱⁱ Путеводитель по фондам центрального государственного архива Узбекской ССР.-Ташкент,1988, стр. 25-26

^{iv} O'zMA, F.R-1619, r-11, y/j 60,61.